



**TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS**

VOLUME 7 / 2024

LABOR ECONOMICS

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ilmiy elektron jurnali

**LABOUR ECONOMICS AND
HUMAN CAPITAL**

scientific electronic journal

2024 yil 1-son

Volume 7, Issue 1, 2024



**МЕХНАТ ИҚТISODIYOTI
VA INSON KAPITALI**
ISSN: 3030-3117



LABORECONOMICS.UZ

МЕХНАТ ИҚТISODIYOTI VA INSON KAPITALI

№ 1-2024

**ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ
КАПИТАЛ**

LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-sonli qarori bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

Tahririyat manzili:

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi,
49 uy

Elektron manzil: ilmiymaktab@gmail.com

Jurnal web-sayti: www.laboreconomics.uz

Bog‘lanish uchun telefonlar:

+998998818698

Tahririyat Kengashi raisi:

(Chairman of the Editorial Board)

Abduraxmanov Qalandar Xodjayevich, O'zFA akademigi

Tahririyat Kengashi a'zolari:

(Members of the Editorial Board)

Toshqulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof.
Yusupov Axmadbek Tadjiyevich, i.f.d., prof.
Sharipov Kongratboy Avezimbetovich, t.f.d., prof
Raifkov Kudratilla Mirsagatovich, i.f.d., prof
Xalmuradov Rustam Ibragimovich, i.f.d., prof
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.
Nazarov Sharofiddin Xakimovich, i.f.d., prof.
Jumayev Nodir Xasiyatovich, i.f.d, prof.
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof.
Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof.
Zokirova Nodira Kalandarovna, i.f.d., prof.
Xudoyberdiyev Zayniddin Yavkachevich, i.f.d., prof.
Muxiddinov Erkin Madorbekovich, i.f.f.d., (PhD)
Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayevich, i.f.n., dots.
Amirov Lochinbek Fayzullayevich, i.f.f.d., (PhD), dots.
G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich, i.f.f.d., (PhD), dots.
Shakarov Zafar Gafarovich, i.f.f.d., (PhD)

Jamoatchilik Kengashi a'zolari:

(Community Council members)

Bred Bodenxauzen (AQSh)
Jon Ankor (Buyuk Britaniya)
Odegov Yuriy Gennadevich (Rossiya Federasiyasi)
Keynz Miller (AQSh)
Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)
Masato Xivatari (Yaponiya)
Gerxard Feldmayer (Germaniya)
Eko Shri Margianti (Indoneziya)
Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)
Rohana Ngah (Malayziya)
Sharifah Zanniyerah (Malayziya)
Teguh Dartanto (Indoneziya)
Nur Azlinna (Saudiya Arabistoni)
Muhammed Xoliq (Pokiston)
Alisher Dedaxonov (Toshkent)

Mas'ul muxarrir (Editor-in-Chief): G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich

Veb-administrator (Web admin): Musayev Xurshid Sharifjonovich

MUNDARIJA (CONTENTS)**MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI**

G.K.Abduraxmanova S.B.G'oyipnazarov S.P.Qurbonov	<i>Mamlakat aholisini unumli bandlik darajasini oshirish mexanizmini takomillashtirish</i>	7-18
B.E.Mamaraximov	<i>Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish yoshlar bandligini ta'minlash omili sifatida</i>	19-25
A.A.Yadgarov	<i>Agrar tarmoqni sufgurtalashda mалаkali кадрлар тайёрлаш ҳолати ва ривожлантириш истиқболлари</i>	26-32
S.P.Qurbonov	<i>O'zini o'zi band qilishda zaif bandlikdan unumli bandlik sari transformatsion jarayonlar</i>	33-45
N.R.Saidov	<i>Yangi ish o'rinlarini tashkil etishga investisiyalar ta'sirini ekonometrik tahlili</i>	46-56
F.O'.Masharipov	<i>Meʼnat bozorida хусусий сектор эҳтиёжи асосида ўрта бўғин кадрларини тайёрлаш: муаммолар ва ечимлар</i>	57-70
S.M.Kurbanbayeva	<i>Квалификационные рамки в современном образовании и рынке труда</i>	71-80
I.X.Xuvaydullayeva	<i>Миллий меҳнат бозорида инсон ресурсларидан самарали фойдаланишни имкониятлари</i>	81-90
G.R.Kuziyeva	<i>O'zbekistonda raqamlashtirish va ta'lim orqali mehnat unumdorligini oshirishning miqdoriy tahlili</i>	91-101

INSON KAPITALI

A.B.Irmatova A.M.Saidahmadov	<i>Raqamli iqtisodiyotda inson kapitalini rivojlantirishda o'qitish tizimi</i>	102-117
S.M.Dusanov	<i>Таълим тизимида молиявий ресурслар самарадорлигини оширишнинг ривожланган хорижий мамлакатлар тажрибасидан фойдаланиш имкониятлари</i>	118-134
I.I.Ergashev	<i>Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантиришда инвестициялардан фойдаланиш самарадорлигини баҳолаш услубиёти</i>	135-145
Sh.A.Xodjayeva	<i>Основы формирования и функционирования маркетинговой деятельности высших образовательных учреждений</i>	146-159

M.R.Babadjanova	<i>Иқтисодий категория сифатида инсон капиталининг моҳияти ва унда таълимни ўрни</i>	160-172
D.B.G'aniyeva	<i>Ходимларни ўқитиш ва ривожлантиришнинг дастурларининг самарадорлигини баҳолаш муаммолари</i>	173-184
INSON TARAQQIYOTI		
D.I.Iskandarova	<i>O'zbekistonda aholi daromadlari va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili</i>	185-194
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH		
M.X.Fayziyeva	<i>Kambag'allikni qisqartirishga raqamli texnologiyalarning ta'siri</i>	195-210
INSON RESURSLARINI BOSHQARISH		
M.Sh.Xaydarova	<i>Использование автоматизации и искусственного интеллекта в управлении человеческими ресурсами: тренды и ожидания</i>	211-221
M.M.Xolmatov	<i>Inson resurslarini samarali boshqaruvida inson kapitalini rivojlantirish</i>	222-232
G.Q.Mo'ydinova	<i>O'zbekistonda to'qimachilik korxonalarining rivojlanish holati va ularda xodimlarni boshqarish tendensiyalari tahlili</i>	233-238
O.I.Rasuljonov	<i>KPI – xodimlar faoliyati samaradorligini baholashning zamonaviy tizimi</i>	239-246
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH		
S.U.Ismailova D.U.Adilova	<i>Теоритические основы развития стратегии цифрового маркетинга на рынке сферы услуг и туризма</i>	247-254
Z.M.Jabborova	<i>Jizzax viloyatida kichik biznes va tadbirkorlikda mehnat munosabatlarining rivojlanishi holati</i>	255-263
S.S.Mamatqulov D.I.Iskandarova	<i>O'zbekistonda tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirish asosida aholi farovonligini yuksaltirish yo'llari</i>	264-274
M.Sh.To'xtayeva	<i>Platformalarda informatsion xaritalar – aholi tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantiruvchi vosita sifatida</i>	275-282
T.A.Urkinbayev	<i>Влияние реформ в сфере туризма на рост экономики Узбекистана и развитие предпринимательства</i>	283-292

D.A.Vahobov	<i>Кичик бизнес субъектлари фаолиятини инфратузилмавий қўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштириш</i>	293-305
Z.Dj.Adilova	<i>Factors and assessment methods in the development of HR branding: foreign experience</i>	306-314
GENDER TENGLIK		
O.U.Oxunova	<i>O'zbekiston mehnat bozorida gender tengligi: muammolar va islohotlar</i>	315-324



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



PLATFORMALARDA INFORMATSION XARITALAR – AHOLI TADBIRKORLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRUVCHI VOSITA SIFATIDA

Tuxtayeva Muyassar Shovkat qizi

Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti

“Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” ta‘lim mutaxassisligi

2-bosqich magistranti

muyassartuxtayeva@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a78

Annotatsiya. Ushbu maqolada aholining iqtisodiy savodxonlik darajasi hamda tadbirkorlik qobiliyatini oshirishda iqtisodiy shaffoflik muhitini ta‘minlovchi tadbirkorlik platformalariga integratsiyalangan axborot xaritalaridan foydalanish istiqbollari, xaritaning aholini tadbirkorlikka jalb qilish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashdagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘rni va ahamiyatini tahlil qilinadi. Shuningdek, axborot xaritalarining samaradorlik darajalarini ilmiy asoslash maqsadida ularning tadbirkorlik muhitini yaratuvchi va aholi tadbirkorlik qobiliyatini oshiruvchi endogen hamda ekzogen omillarni o‘zaro integratsiyalovchi funksiyasi yoritilib, hududlarda bandlik va rivojlanishni ta‘minlash maqsadida xaritada real vaqttdagi va amaldagi hududiy imkoniyatlarni (soliq, subsidiya, ta‘lim sertifikati imtiyozlari, temir daftar, hududiy resurslar, imkoniyatlar, hamkorlik istiqbollari) aks ettirish yondashuvini qo‘llash taklifi olg‘a suriladi.

Kalit so‘zlar: Tadbirkorlik, iqtisodiy savod, tadbirkorlik qobiliyati, axborot platformalari, tadbirkorlikning tashkil topish bosqichlari, tadbirkorlikni rivojlantirishga ta‘sir qiluvchi omillar, endogen omil, ekzogen omil, ishbilarmonlik muhiti.

INFORMATION MAPS ON PLATFORMS - AS A TOOL FOR DEVELOPING THE ENTREPRENEURIAL ABILITY OF THE POPULATION

Tukhtayeva Muyassar Shovkat kizi

Tashkent State University of Economics

Educational specialty "Economics (by branches and sectors)"

2nd course master student

Abstract. This article analyzes the prospects of using information maps integrated into business platforms that provide an environment of economic transparency in increasing the level of economic literacy and entrepreneurship of the population, the socio-economic role and importance of the map in attracting the population to entrepreneurship and supporting entrepreneurship. Also, in order to scientifically substantiate the efficiency levels of information maps, their function of mutually integrating endogenous and exogenous factors that create an entrepreneurial environment and increase the entrepreneurial ability of the population is highlighted, and in order to ensure employment and development in the regions, real-time and actual regional opportunities (taxes, subsidies, A proposal to apply the reflection approach is put forward.

Keywords: Entrepreneurship, economic literacy, entrepreneurial ability, information platforms, stages of entrepreneurship, factors affecting the development of entrepreneurship, endogenous factor, exogenous factor, business environment.

Kirish

Iqtisodiyotning muammosi hisoblangan ishsizlik darajasini kamaytiruvchi, davlatning jahon bozoriga kirish sur'atini tezlashtiruvchi, innovatsiya, ish o'rnini yaratish va iqtisodiy o'sishning asosiy manbai, yuksalishning eng kutilgan belgisi hisoblangan tadbirkorlikning taraqqiyoti - jahon miqyosida ilmiy izlanuvchilar orasida keng munozaralar mavzusiga aylangan inson kapitali, kelajak kasblari, zamon kompetensiyalari va doimiy ahamiyatga ega bo'lgan bandlik bilan bog'liq muammolarning eng samarali va istiqbolli yechimidir. Rivojlanayotgan mamlakatlarda tadbirkor aholining katta qatlami mikro tadbirkorlik bilan shug'ullanib, biznesning 90 foizini aynan shu turdagi tadbirkorlik tashkil qiladi. Bu bilan mikro biznes – mamlakatlarda 60-70%, dunyo bo'ylab esa 50% rasmiy bandlikni ta'minlamoqda. Tadbirkorlik faqat joriy bandlikni ta'minlashda emas, balki bugungi kundagi jadal raqamlashuv, robotizatsiya va 4-sanoat inqilobi boisidan yuzaga kelishi kutilgan an'anaviy kasblarning yo'qolishi, yangi kasblarning paydo bo'lishi bilan bog'liq ilmiy bashoratlarning insonning bugungi hamda kelajakdagi farovonligiga tahdid solish darajasini pasaytirishda xizmat qilmoqda. Binobarin, tadbirkorlik-2030-yilga qadar 600 millionga yaqin yangi ish o'rnini yaratish muammosini hal qilishning umidli yechimi sifatida e'tirof etilmoqda. [1].

Yuqorida sanalgan qator ehtiyojlar sabab, raqamlashuv muhitida tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholi tadbirkorlik qobiliyatini oshirish va unga jalb qilishning zamonaviy metodlari hamda ulardan O'zbekiston miqyosida foydalanish imkoniyat va istiqbollari aniqlandi. Xususan, raqamli platformalarga *informatsion markaz* funksiyasini integratsiyalash yoshlarni o'z iqtisodiy savod va salohiyatlarini baholash orqali intuitiv emas balki, ongli tavakkalchilik asosida faoliyatni boshlashlariga muhit yaratishi bilan bir qatorda informatsion markazning tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning uzliksizligini ta'minlashda yo'naltiruvchilik vazifasini o'tashi ilmiy nuqtayi nazardan asoslanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Aholini tadbirkorlik qobiliyatini oshirish, jumladan yoshlarni bu faoliyat turini yuritishga jalb qilish mavzusi doirasida qator izlanishlar olib borilib, olimlar yoshlarning tadbirkorlik bilan shug'illanishni boshlashiga ta'sir qiluvchi turli faktorlar ahamiyatini o'rganganlar.

Avvalambor, tadbirkorlik qobiliyati deganda biz, insonning ishlab chiqarish jarayonida qo'llaniladigan resurslardan qanday foydalanish xususida oqilona, maqsadga muvofiq qarorlarni qabul qila olish, innovatsion jarayonlarda faol qatnashish, tavakkal qilish va yutuqqa erishish layoqatini tushungan holda, adabiyotlar tahlili jarayonida kishi to'g'ri qaror qabul qilishi,

ongli tavakkalga qo‘l urishi va faoliyatni tizimli ravishda muvaffaqiyatli yuritishi mavzulariga alohida e‘tibor qaratildi. Tahlil davomida aholi tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirish mavzusi bo‘yicha izlanishlarda olimlar diqqati asosan 3 omilga (ta‘lim – iqtisodiy savod; tadbirkorlik sifatlari; ishbilarmonlik muhiti (xususan moliyaviy ta‘minot)) qaratilgani aniqlanib, shu yuzadan, ularni mos ravishda uch guruhga ajratildi va ular asosida axborot xaritasining funksional vazifalari (iqtisodiy savodxonlikni oshirish; shafforlik asosida ongli tavakkalchilikni shakllantirish bilan tadbirkorlikka jalb qilish; tadbirkorlarni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash) belgilandi.

Tadqiqotlarda olimlar yoshlarni tadbirkorlik faoliyatini boshlashiga tadbirkorlik ta‘limining, xususan iqtisodiy savodxonlikning ro‘li [2] [3], kishi tadbirkorlik sifatlarining ahamiyati [4] [5], mavjud ishbilarmonlik muhiti [6] va moliyaviy imtiyozlar [7] ta‘sir faktorlari sifatida tadqiq qilishgan. Xususan, Cooney o‘z taqiqotlarida yosh tadbirkorlarning sohada tajribaga erishgan holda muvaffaqiyatli faoliyatni yo‘lga qo‘yishida qanday to‘siqlar (iqtisodiyot, kadr, pul oqimi, bozordagi raqobat, tadbirkorlik qobiliyati, siyosat.), bu to‘siqlarni yenguvchi kuchlar (tadbirkor, firma, strategiya guruhlariga mansub elementlar)ni aniqlab, asosiy kuch sifatida shaxsning tadbirkorlik sifatlariga urg‘u bergan. Olimning fikricha tadbirkorlik samaradorligiga erishishda tadbirkorlik sifatlarini aholida rivojlantirish va bunda treninglar orqali “real” iqtisodiy tahliliy ma‘lumotlar va iqtisodiy vaziyatlarni o‘rganish katta ahamiyatga ega. Teruel-Sánchez tadbirkor faoliyatiga ta‘lim, tajriba, ishonch va yangi tadbirkor uchun biznes yuritishni boshlashni oson va arzon qiluvchi institutsional muhit omillarini ta‘sir doirasini aniqlab, ta‘lim va tajriba yeg‘indisi ishonchni keltirib chiqarishi, ishonch to‘g‘ridan-to‘g‘ri biznes yuritishda o‘z aksini topishi, biznes yuritish esa institutsional muhitga bog‘liqligini aniqlaydi. Anastacia Mamabolo and Kerrin Myrelarning tadqiqot natijalarida biznes yuritishni boshlash uchun zaruriy bo‘lgan tadbirkorlik qobiliyatining komponentlari imkoniyatlarni aniqlash va baholash jarayonlari, biznesga asos solish va uni yuritishga doir tadbirkorlik faoliyati bosqichlari kesimida tadbirkor shaxsiy sifatlari belgilanib, ularning iqtisodiy faoliyatning ushbu turi bilan shug‘ullanishning har bir bosqichida ahamiyatli ekanligi isbotlangan.

Olimlar fikrini jamlagan holda, iqtisodiy savodxonlik darajasi, kishidagi tadbirkorlik sifatlari va tashqi iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy hamda siyosiy holatning bari birdek tadbirkorlar sonining ortishi yoki kamayishiga hissa qo‘shadi deb xulosa qilish mumkin. Biz bu faktorlarni ikki guruhga ajratib, ularga umumiy holda shaxsga bog‘liq bo‘lgan (endogen) va bog‘liq bo‘lmagan (ekzogen) omillar deb nomladik. Tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirish omillari (endogen va ekzogen) kuchlarini birlashtirish maqsadida tadbirkorlikni rivojlantirish platformalariga (Mahalla.uz) axborot xaritalarini integratsiyalash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot davomida yuqori salohiyatli ilmiy-bibliografik ma'lumotlar bazalarida indeksatsiyalangan maqolalardan foydalanildi. Ishonchli resurslardan jamlangan mavzuga doir ma'lumotlarni tahlil qilishda kvalitativ yondashuv qo'llanilib, analiz va sintez hamda guruhlash metodlaridan foydalaniladi.

Tadqiqot davomida aholining raqamli savodxonlikga ega yosh (19-30 yosh), noiqtisodiy ta'lim yo'nalishida tahsil olgan yoki olayotgan qatlami tanlab olindi. Bu yosh oralig'idagi shaxslar Z avlodga mansub bo'lib, ular raqamli aborigen yoki raqamli avlod nomlari bilan ham tanilganlar. Ular uchun raqamli olam imkoniyat va qulayliklaridan foydalanish qiyinchilik tug'dirmaydi. Bu yosh oralig'idagi shaxslar raqamli platformalardan foydalanishni yana bir to'siq emas balki ustunlik va qulaylik deb baholashlari, ularda bu ko'nikmalarni shakllantirishga alohida kurslar tashkil etilishi ehtiyoji yo'qligi sabab tanlandilar.

Tahlil va natijalar


Quyida platformalarning axborot xaritasi funksiyasidan foydalanish orqali hududiy imkoniyat va xususiyatlar haqidagi ma'lumotlarning aholi o'rganishi, tahlil qilishi va baholashi uchun ochiq va shaffofligi ularda tadbirlik faoliyatiga bo'lgan istakning o'z iqtisodiy bilimlarini charxlash va baholash asosida ongli tavakkal qilishga moyillikni oshirish orqali paydo bo'lishi, tadbirkor shaxsi faoliyatining muvaffaqiyatli amalga oshishida tayanch hisoblangan iqtisodiy jarayonlar borasidagi bilimning baholanishi asosida qo'shimcha imtiyozlar berish tizimining takomillashuv imkoniyatlari, bundan tashqari mamlakatning turli nuqtalarida tadbirkorlar soni keskin farqlanishi munosabati bilan, hududlar kesimida tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash islohatlarni jadallashtirish chora-tadbirlarini chuqurlashtirishda foydalanish imkoniyati haqida so'z yuritiladi.

Hududiy imkoniyatlar va tadbirkorlik qobiliyati

Hududiy taraqqiy etishni keyingi bosqichga olib chiquvchi tadbirkorlar faoliyati alohida ahamiyat kasb etib, o'z o'rnida tadbirkorlik qobiliyatini oshirish islohatlarining hududiy kesimlarda bosqichma-bosqich amalga oshirilishining ham o'rinli asosi mavjud. Xususan, Global tadbirkorlik monitoringi (GEM) hisobotiga ko'ra 2022-yilda biznesga asos solish bo'yicha 19.9%ga teng bo'lgan yuqori ko'rsatkichlar bilan Qozog'iston liderlik qilib, keyingi o'rinlarda 15.1 hamda 13.5 foizlar bilan mos ravishda Latviya va Belorusiya turibdi. 28 ta Yevropa mamlakati aro o'tkazilgan bu tadqiqotda Sharqiy Yevropa hududidagi mamlakatlarda tadbirkorlik faoliyatini yuritishni boshlash darajasi G'arbiy hududlardagi mamlakatlar, xususan, Buyuk Britaniya (12.9%), Germaniya (9.2%), Fransiya (9.1%)dagi biznes yuritishga ilk qadam qo'yish holatlar foizidan sezilarli darajada yuqori (1-rasm).

Ammo, tadqiqotning yanada ahamiyatli jihati bu ko'rsatkichlarning mamlakatlar kesimidagi farqi emas, bir mamlakat hududlari aro farqining kattaligidadir. Binobarin, Estoniyadagi dastlabki bosqichdagi tadbirkor

subyektlari indikatorini hududlararo 10-19% oralig'ida o'zgarsa, Ruminiyaning turli regionlaridagi farq 10% (7-17%) ga tengligida[8]. Keltirilgan misolda ko'rsatkichlarning variativ xarakteri – *tadbirkorlik qobiliyati* o'zini geografik, institutsional, ijtimoiy-demografik, iqtisodiy-siyosiy xususiyatlarning ta'sirida shakllangan turli kontekstlarda turlicha namoyon etishini ko'rsatmoqda. Bu tendensiya mamlakatimizda hududlarni toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimi joriy etilib, ajratilgan 5 toifa uchun biznesni qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari kesimida farqlanuvchi choralar ishlab chiqilishining bejiz emasligini asoslaydi [9]. Demak, holat bo'yicha hukm chiqarish bizga hududiy yondashuv, ya'ni hudud imkoniyatlari hamda tadbirkorlik qobiliyati o'rtasidagi mustahkam aloqa mavjud degan natijani beradi. Mamlakatda olib borilayotgan chora-tadbirlarning izchil va mantiqiy davomi sifatida mavjud platformalarga kompleks informatsion xarita funksiyasini kiritish maqsadga muvofiq.



1-rasm. Bo'lg'usi tadbirkor va informatsion xarita

Bugungi kunda jahon tajribasida raqamli platformalar bir vaqtning o'zida infratuzilma, marketpleys hamda ekotizim funksiyasini bajarmoqda. Maqolada aholining mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, ongli tavakkalchilik asosida tadbirkorlikni boshlash qobiliyatlarini raqamli ekotizim imkoniyatlari orqali oshirish istiqboli tadqiq qilingan.


Tadbirkorlik qobiliyatining oshishi deganda aholida mavjud imkoniyatlardan foydalana olish maqsadida to'g'ri qarorlar qabul qilish layoqatining rivojlanishi tushunilar ekan, bu qisqa ta'rifning mohiyatini ochish quyidagilarni taqozo qiladi:

1. Mavjud imkoniyatlarni “imkoniyat” sifatida ko'ra bilishida iqtisodiy bilimlarga egalik qilish;
2. Imkoniyatlardan foydalanish uchun yetarlicha iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish salohiyatiga ega bo'lish;
3. Biznesni boshlash va uni yuritishda shaxsiy tadbirkorlik sifatlariga egalik qilish;
4. Hududlar kesimida tadbirkorlik faoliyatini yuritish imkoniyatlari haqidagi ma'lumotlarning shaffofligi va omma uchun ochiqligi ta'minlangan bo'lishi;
5. Aholini tadbirkorlik faoliyatini yuritishni boshlashda iqtisodiy savodxonlikni oshirish va tadbirkorlik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan trening/vebinar/seminar/kurslarni o'tashni rag'batlantirish;

6. Institutsional muhitning ijobiyligi yuqoridagi har bir bosqichda ta’minlanganligi.

Ya’ni, imkoniyatning borligini bilish uchun iqtisodiy tasavvur va tushunchalarga egalik qilish kerak, to’g’ri qarorlar qabul qilish esa, iqtisodiy tafakkurga tayanib xulosa chiqarishda birlamchi talab hisoblangan ishonchli ma’lumotlarga bo’lgan ehtiyojni ko’rsatadi. Boisi, iqtisodiy ong va tafakkurga egalik qilmagan shaxs ham huddi hududiy imkoniyatlar va mamlakat islohatlari haqida bexabar bo’lgan shaxsdek tadbirkorlik faoliyatini yuritishga qodir bo’lmaydi. O’z navbatida, iqtisodiy bilimlarni egallash baholanmagan tavakkal ustiga qurilgan xavfdan yiroq bo’lib, ongli tavakkal qilish orqali aholini tadbirkorlikka jalb qiladi. Tadbirkor kishining faoliyati samarorligi undagi ishbilarmonlik sifatlariga ham bevosita bog’liq. Ammo, jarayonning har bir bosqichida institutsional muhit birlamchidir. Yuqorida ta’kidlangan me’zonlar bari bir-birini taqozo qilib, umumlashtirilgan holda aholining tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan muhitni tashkil qiladi.

Hudud xarakteristikasi kishining o’z kelajagini bashoratlash va biznes yuritishni boshlashdagi vazifasi Porterning 5 kuch nazariyasidagi kompaniyaning raqobatbardoshligini ta’minlovchi mikroelementlarga analogdir. Hudud xarakteristikasi deganda biz – hududdagi aholi madaniyati, turli xususiy/umumiy imtiyozlar, soliq haqidagi ma’lumotlar, hududdagi resurslar haqidagi ma’lumotlar majmui nazarda tutilmoqda. Porterning nazariyasidan farqli jihati aholining bu kabi ma’lumotlardan to’g’ri, ongli tavakkalchilikni amalga oshirgan holda tadbirkorlikni boshlashda foydalanishi va ma’lumotlar qatorida hukumat qo’llab-quvvatlash tizimidagi amalga oshirilayotgan islohatlarning ravshanligi va platformadagi ma’lumotlardan iqtisodiy savodxonlikni oshirish va baholashda keng foydalanish imkoniyatini yaratishidir.



2-rasm. Tadbirkorlik muhitini yaratuvchi omillar

Umuman olganda, kishi qachonki ikki faktor guruhiga mansub elementlarning aksar qismi jamlangan holda tadbirkorlik faoliyatini boshlash

ehtimoli oshadi. Chunki bu ikki guruhni tashkil qiluvchi omillar umumiy tadbirkorlik qobiliyatining rivojlanishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri uzviy bog‘langan. Omillarni biz endogen – tashqi ta‘sir omillari, hamda ekzogen – kishi iqtisodiy savodi, shaxsiy xususiyatlari, tadbirkorlik sifatleri kompleksidan tashkil topgan shaxsga bog‘liq omillarga ajratdik. Endogen omillar deganda, ma‘lum va mashxur bo‘lgan qo‘llab-quvvatlovchi biznes inkubatorlar, maslahat markazlari, shaffof ishbilarmonlik muhiti, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash reformalari, huquqiy himoya kabilarning mavjudligi kiradi. Bu imkoniyatlarni aks ettiruvchi axborot platformasi yoshlarni tadbirkorlik qobiliyatlarini mavjud shart-sharoitni tezkor baholash salohiyatini oshirish orqali rivojlantiradi. Keltirilgan omillar, ularga mansub elementlar hamda ma‘lumotlar xaritasini integrallashtiruvchi platformaning bog‘liqlik munosabati 2- rasmda aks ettirilgan.

Xulosa va takliflar

Raqamlashuv muhitida aholi tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirish axborotlashgan jamiyat talablariga muvofiq mavjud imkoniyat hamda shart-sharoitlar bilan shaffof tarzda tanishtirish orqali amalga oshiriladi. Bu kishilarda o‘z iqtisodiy salohiyatini baholash va ongli tarzda tadbirkorlik faoliyatidagi tavakkalchilikka qo‘l urishga turtki bo‘ladi. Raqamli O‘zbekistonni barpo etar ekanmiz, hududiy xususiyatlar va mavjud imtiyozlar xaritasini tadbirkorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlovchi platformalardan biriga implementatsiya qilish aholining yosh qatlamida mamlakatdagi mavjud ishbilarmonlik muhiti haqidagi aniq tasavvurni shakllantirib, barqaror rivojlanish potensialiga ega tadbirkorlik faoliyatiga asos solishga jalb qilishning istiqbolli usulidir. Takliflar sifatida quyidagilar keltiriladi:

1. Aholining iqtisodiy savodxonligi va tadbirkorlik qobiliyatini oshirishda tadbirkorlik platformalarining ishtirokini taminlash;
2. Aholi ichida ommalashgan platformalarga informatsion xaritalarni qo‘shish;
3. Hududlar kesimidagi ular uchun xususiy bo‘lgan, jumladan hukumat chora-tadbirlariga binoan amalga oshayotgan yoshga, hudud toifasiga ko‘ra va gender imtiyozlar, moddiy ehtiyojmandlik holatiga ko‘ra kredit yoki soliq imtiyozlari, hudud imkoniyatlari hamda xususiyatlari va shu kabi aholini tadbirkorlikka jalb qiluvchi ma‘lumotlarni tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash platformalariga (Mahalla.uz yoki E.Kasb.uz) xarita shaklida integratsiyalash;
4. Real iqtisodiy holatni aks ettiruvchi ma‘lumotlardan aholi iqtisodiy savodini shakllantirish va iqtisodiy savodxonlik darajasini tekshirishda (test shaklida) maqsadli (yosh tadbirkorlar uchun imtiyozli kreditlar berishda) foydalanish;
5. Test natijalariga ko‘ra maxsus sertifikatlarni ajratish va ular asosida imtiyozli kredit berish tizimini yo‘lga qo‘yish. Yoki mavjud tizimning maxsus sertifikat berish uchun iqtisodiy savodxonlik sinovi bosqichiga kiritish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Chantal Line Carpentier & Hannah Braun (2020) Agenda 2030 for Sustainable Development: A powerful global framework, Journal of the International Council for Small Business, 1:1, 14-23, DOI: 10.1080/26437015.2020.1714356
2. [https://www.cell.com/heliyon/pdf/S2405-8440\(21\)00795-7.pdf](https://www.cell.com/heliyon/pdf/S2405-8440(21)00795-7.pdf)
3. Suratno., Bagus Shandy Narmaditya., Agus Wibowo. Family economic education, peer groups and students’ entrepreneurial intention: the mediating role of economic literacy. [https://www.cell.com/heliyon/pdf/S2405-8440\(21\)00795-7.pdf](https://www.cell.com/heliyon/pdf/S2405-8440(21)00795-7.pdf)
4. T. M. Cooney, “Entrepreneurship Skills for Growth-Orientated Businesses“, Denish Bus. Auth., 23 (2012).
5. Syeda Nimra Batool, Khawar Razzaq, Hassan Imam. How does action-oriented personality traits impact on entrepreneurial career choices? A trait-factor theory perspective. 2022, Kybernetes
6. Teruel-Sánchez R, Briones Peñalver AJ, Bernal-Conesa JA, de Nieves-Nieto C. Influence of the entrepreneur's capacity in business performance. Bus Strat Env. 2021;1–15. <https://doi.org/10.1002/bse.2757>
7. Tendai Douglas Sivotwa, Perceived Access to Finance, Entrepreneurial Self-Efficacy, Attitude Toward Entrepreneurship, Entrepreneurial Ability, and Entrepreneurial Intentions: A Botswana Youth Perspective DOI: [10.1177/21582440221096437](https://doi.org/10.1177/21582440221096437)
8. Global Entrepreneurship Monitor 2022-2023 report
9. Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.12.2022 yildagi PF-287-son
10. Anastacia Mamabolo & Kerrin Myres (2020): A systematic literature review of skills required in the different phases of the entrepreneurial process, Small Enterprise Research, DOI: 10.1080/13215906.2020.1730230
11. Kevin McKague, Chad Saunders, Stephanie Gilbert & Ellen Farrell. Strong ties, information seeking, and ecosystem brokerage among actors in the Atlantic Canadian entrepreneurial ecosystem. DOI: <https://doi.org/10.1080/08276331.2021.2015895>
12. Eristian Wibisono. The digital entrepreneurial ecosystem in the European Union: evidence from the digital platform economy index, <https://doi.org/10.1080/09654313.2023.2202683>
13. Degeorge, J., & Fayolle, A. (2011). The entrepreneurial process trigger: A modelling attempt in the French context. Journal of Small Business and Enterprise Development, 18(2), 251–277. <https://doi.org/10.1108/14626001111127061>

Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali



+998 71 239 28 13

Tashkent, Uzbekistan

ilmiymaktab@gmail.com

www.laboreconomics.uz